

4/2023,
iyul-
avgust
(№ 00066)



O'ZBEKISTONDA MUSTAQIL TURIZM INFTRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Yuldashev Kamol Sharifovich

"Ipak Yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universiteti doktoranti, Buxoro davlat universiteti, Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasida o'qituvchisi. kamolyuldashev1987@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss4/a40

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston hududlaridagi turizm infratuzilmasining hozirgi holati o'rganilgan, mustaqil turizmga mualliflik ta'rifi berilgan, mustaqil turizmni rivojlantirishda ta'sir etuvchi omillar ilmiy asoslangan, xorijiy sayyohlarning ixtisoslashgan turizmga oid veb sahifalarda qoldirilgan sharhlari kontent tahlil qilinib, mamlakat turizm infratuzilmasining kuchli va zaif tomonlari o'rganilgan, chekka hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish orqali erishiladigan natijalar aniqlangan.

Kalit so'zlar: mustaqil turizm, infratuzilma, uyali texnologiyalar, mustaqil turizmga ta'sir etuvchi omillar, elektron bronlash platformalari.

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ИНФРАСТРУКТУРЫ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Юлдашев Камол

Докторант Международного университета туризма и культурного наследия «Шелковый путь» Преподаватель Бухарского государственного университета, кафедры «Туризма и гостиничного бизнеса»

Аннотация

В статье изучено текущее состояние туристической инфраструктуры в регионах Узбекистана, дано авторское определение самостоятельного туризма, научно обоснованы факторы, влияющие на развитие самостоятельного туризма, проанализированы сильные и слабые стороны туристической инфраструктуры страны, на основе отзывов иностранных туристов оставленной на специализированных туристических сайтах и социальных сетях, определены результаты, которых необходимо выполнять за счет развития туристической инфраструктуры в мало известных регионах страны.

Ключевые слова: самостоятельный туризм, инфраструктура, мобильные технологии, факторы, влияющие на самостоятельный туризм, электронные платформы бронирования.

FACTORS OF DEVELOPMENT OF INDEPENDENT TOURISM INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN

Yuldashev Kamol

Doctoral student of the "Ipak yo'li" International University of Tourism and Cultural Heritage Lecturer at Bukhara State University, Department of Tourism and Hotel Business

Abstract

The article examines the current state of tourism infrastructure in the regions of Uzbekistan, the author's definition of independent tourism, scientifically substantiated the factors influencing the development of independent tourism, analyzed the strengths and weaknesses of the tourist infrastructure of the country, based on the reviews of foreign tourists left on specialized travel websites and social networks, identified the results to be achieved by developing tourism infrastructure in little known regions of the country.

Keywords: solo tourism, infrastructure, mobile technology, factors affecting independent tourism, electronic booking platforms.

Kirish

O‘zbekiston o‘zining tarixiy–madaniy turizmi bilan dunyoda keng tanilgan mamlakatdir. O‘zining boy tarixi, ko‘p asrlik qadimiy yodgorliklari, bino va inshootlari, masjid va maqbaralari, xonaqohlari, tarixiy va dindor shaxslari bunga misoldir. Ko‘p yillardan beri xorijiy sayyohlar mamlakatimizga uzluksiz tashrif buyurishadi. Ammo bu sayyohlar soni yildan-yilga sezilarli darjada oshib borayotganini aytish qiyin. O‘zbekiston mamlakati yuqorida sanab o‘tilgan infratuzilmalardan tashqari, mustaqil sayohatchilar kategoriyasi uchun muhim sanalgan tog‘ sahro, daryo, dengiz va o‘rmon kabi infratuzilmalarini ham rivojlantirish zarurligini va mamlakatda turizm sohasini barqaror rivojlantirishni ifodalaydi. Aynan ushbu holat mamlakatning jozibadorligi va sayohat turlarining xilma-xilligiga egaligi bilan mustaqil sayohatchilarni ko‘proq jalb qilishga undaydi.

Zaif infratuzilma turizmdagi yuqoridagi yo‘nalishlarni rivojlanishiga katta to‘sqinlik qilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, tadqiqotning asosiy muammosi mamlakatda mustaqil sayohatchilar uchun qulay infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha izlanishlarni olib borish lozimligini belgilaydi.

Mamlakat infratuzilmasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 17.09.2020 yildagi 559-sonida [1] “tog‘li hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga” doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida hududlarining turistik salohiyatini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tizimini takomillashtirish va chekka hududlarda qo‘shimcha ish o‘rinlari, zamonaviy xalqaro umumavsumiy kurortlar, mehmonxona majmualari, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va boshqa turistik ahamiyatli obyektlar barpo etish, mamlakatning tog‘li hududlaridagi zamonaviy muhandislik infratuzilmasini qurish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida qaror qabul qilindi.

Shu sababdan mamlakatda turizm sohasini barqaror rivojlantirish va milliy iqtisodiyotdagi ulushini oshirish maqsadida, mustaqil sayohat qiluvchilar kategoriyasi oqimini oshirish uchun tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarni tashkil etish, mamlakatning katta salohiyatga ega bo‘lgan turistik hududlardan yanada samarali foydalanish, unga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan ichki va tashqi omillar, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish (bank tizimlari, pul ayriboshlash shaxobchalari va boshqalar), mustaqil sayohatlarni rejalashtirishni maqul ko‘radigan sayyohlar uchun infratuzilmani tashkil etish va uni jahon turizm bozorida targ‘ibot qilish hisobiga mamlakatning yangi qiyofasini namoyon etish zarurati tug‘ilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Tadqiqot jarayonida xalqaro va milliy olimlar tomonidan turizm infratuzilmasiga bildirilgan fikrlari va mulohazalari tahlil qilingan. Xususan, Indoneziyalik olimlardan

A.R.Hafnidar, M.Afifuddin va Herry Akbar olib borgan tadqiqotlarida infratuzilma bu turizm sohasini rivojlantirishda asosiy qurilmasiga aylanadi deb ta’kidlab o’tishgan va turizm infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor darajasini aniqlash va mamlakatdagi potentsial investitsiyalarning ustuvor yo’nalishini ishlab chiqilishi kabi muammolarni o’rgangan [2].

A.V.Kormisheva “Innovatsiya va investitsiya” jurnalida chop etilgan maqolasida turizm industriyasini rivojlantirishda asosiy, aloqa vositalari, turistik obyektlar namoyishi, turar joy va joylashtirish vositalari, savdo, maishiy va davolash-profilaktika xizmatlari, sport inshootlari kabi infratuzilmalarni ommashtirishga urg’u bergan.

M.S.Oboronin tadqiqot natijalari bo’yicha mustaqil sayohatchilar o’z sayohatlari davomida ko’plab infratuzilmaga bog’liq kamchiliklarni o’rgangan. Uning fikricha mustaqil sayohatchilar uchun axborot xizmatlari, mustaqil sayohatchilar ko’p hollarda shaxsiy avtotransportlarida harakatlanishini inobatga olib, yo’llarda yo’l ko’rsatgichlarining yetarli emasligi, xizmatlarni onlayn band qiladigan internet platformalarining aniq va to’g’ri ma’lumot berolmasligi kabi muammolarga yechim topgan [3].

Q.H.Nguyen o’z maqolasida Vietnam davlatida mustaqil sayohatchilarni ko’proq jalb qilishda uchta asosiy komponentga e’tibor qaratgan, transport va kommunikatsiya infratuzilmasi, restoran va mehmonxonalar, ko’ngilochar infratuzilmalarini rivojlantirishda xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va uni samaradorligi haqida ta’kidlab o’tgan [4].

D.Y.Dalimunthe, Devi Valeriani, Fitra Hartini, Rulyanti Wardhani kabi olimlar infratuzilmani rivojlantirish orqali, turizmni barqaror rivojlantirish haqidagi maqolasida, Bangka Belitung orollari provinsiyasining 3 xil turdagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik infratuzilmasini o’rganib chiqib, tur davomida xorijiy sayyohlar qiziqishi va darajasidan kelib chiqib aynan ushbu 3 konsepsiya bo’yicha baholashini ta’kidlab o’tishgan [5].

Guodong Yan, Lin Zou, Yunan Liu, Ruxue Ji kabi olimlar o’z tadqiqotlarida, Xitoy yangi infratuzilmani qurish, asosan axborot infratuzilmasi, konvergent infratuzilma va innovatsion infratuzilmani o’z ichiga oladi, deb ta’kidlashgan. Axborot va tarmoq infratuzilmalariga asoslangan turizmni rivojlantirish mintaqaviy sharoitlarning xilma-xilligini yaxshiroq aks ettirishi mumkin, yangi infratuzilmalarning qurilishi esa bilim va axborotni raqamli iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish omillariga aylantiradi deb o’z fikrini yakunlagan [6].

B.Turayev, U.Atamurodov o’z tadqiqotlarida, “Turistik infratuzilma – ma’lum vaqt va makonda turistning turli-xil istaklarini sifat jihatidan qondirishga qaratilgan moddiy va nomoddiy xususiyatlarga ega obyektlar majmuidir” deb ta’rif berishgan [7].

Yuqorida ta’kidlab o’tilgan barcha olimlarning imliy tadqiqot ishlarida, turizm sohasida aynan mustaqil sayohatchilar uchun zarur bo’lgan infratuzilma haqida yetarlicha o’rganilmagan. Ular asosiy e’tiborlarini keng qamrovli turizm infratuzilmasiga qaratgan.

Bizning fikrimizcha, *mustaqil turizm – o’z turistik yo’nalishlarini mustaqil shakllantirish, o’zini mustaqil boshqarish, o’z-o’ziga xizmat ko’rsatish va sayohat jarayonlarini boshqarish shaklidir*. Xorij tajribasi shuni ko’rsatadiki, mustaqil turizmning jadal rivojlanishiga ta’sir ko’rsatgan asosiy obyektiv omil bu raqamli va axborot texnologiyalari va telekommunikasiyalarining joriy etilishi bo’ldi.

Texnologiya bronlash tizimlarining markazidir. Texnologiyalar tufayli sayohatchilar internet tarmoqlariga kirish imkonini beradi va bu orqali ular barcha turdagi xizmatlar, jumladan, turpaketlar, turar joy, avia va temir yo’l xizmatlari, yengil avtomobillarni ijaraga olish kabi ma’lumotlarga ega bo’lishiga imkoniyat yaratib beradi. Ilgari barcha asosiy xizmatlar sayyohlik agentligi tomonidan amalga oshirilgan bo’lsa hozirda “onlayn” rejimida

sayohatchilar yo‘l-yo‘lakay yechimlarni topib borishmoqda. Masalan, mahsulotlarni va alohida xizmatlarni tanlash, bron qilish, xizmatlar uchun oldindan to‘lov qilish, bronni bekor qilish yoki qayta bron qilish imkoniyati paydo bo‘lgan. Mamlakatning zaif nuqtalardan biri bo‘lgan internet tezligi va axborot texnologiyalarni yanada rivojlantirish zarurati tug‘ilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida mustaqil turizmni rivojlantirishning xalqaro va milliy imkoniyatlari bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar o‘rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida ilimiy-nazariy farazlar, qiyosiy tahlil, kuzatish va tanlab olish, statistik va dinamik yondashuv, kontent tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar


Turizm infratuzilmasi – turizmni rivojlantirishning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, u hududni rivojlantirish va turizm infratuzilmasi resurslardan oqilona foydalanishga, turistlarga xizmat ko‘rsatishga, ularning yashash joylarida zarur va yetarli darajada qulaylik yaratishga yordam beradi. Shu bilan birga turizmning rivojlanishi mahalliy aholining turmush sharoitini yaxshilashga, masalan, hudud aholisining ish bilan ta‘minlanishiga olib keladi.

Turizm infratuzilmasi keng ma‘noda o‘z ichiga turar joy, tadbirlar o‘tkaziladigan joylar, parklar, ovqatlanish va ko‘ngil ochar maydonlar, madaniyat va san‘at obyektlari, transport tarmoqlari, ayriboshlash joylari, aviatsiya, dengiz, turistik yo‘nalishdagi yo‘llar va boshqalar kiradi.

Aeroportlar boradigan joy haqida sayohatchiga birinchi taassurot uyg‘otadigan joydir. Shu sababdan havo aloqalarni mustahkam o‘rnatish sayohatchilar oqimini ko‘paytirish hamda turizmni diversifikatsiya qilish uchun juda katta ahamiyatga ega. Yo‘l tarmoqlari va transport tizimi esa, mamlakat ichida harakatlanishni ta‘minlaydi. Barcha joylashtirish vositalari esa sayyohlarning og‘ir ekskursiyadan keyin dam olishga imkon bersa, ovqatlanish maskanlari xorijiy sayyohlarga milliy ovqatlarni tatib ko‘rish hamda tur davomida tetik yurishga imkon yaratdi.

Yuqorida turizm sohasining asosiy infratuzilmasi sanab o‘tilgan. Bundan tashqari, birlamchi infraturzilmani to‘ldiradigan ikkilamchi infraturzilmalar ham mavjud. Bular keyinchalik mehmonlar kelib ketishidan shakllangan. Masalan, parklar, bog‘lar va muzeylar. Qo‘shimcha qilib, yo‘llar, jamoat hojatxonalari, yo‘l ko‘rsatgichlar va boshqalarni sanab o‘tish lozim. Chunki bu barcha infraturzilmalar turizm sektorining rivojlanishida juda muhim omildir.

Turizm infraturzilmasi turizmni rivojlantirish va mavjud destinatsiya resurslaridan foydalanishning asosi hisoblanadi. Turizm infraturzilmasi turistlarning ehtiyojlarini qondirish va ularning belgilangan joyda bo‘lishdan qoniqishini oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘plab xizmatlarni o‘z ichiga oladi va uning tarkibiy qismlari pastdagi rasmda o‘z aksini topgan (1-rasm).



1– Rasm. Turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlari

Manba: muallif ishlanmasi

Yuqorida ko‘rsatilgan rasmda sayohatni amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan asosiy va qo‘shimcha xizmatlarning tarkibiy qismi aks ettirilgan. Bu turistik xizmatlar sayohat davomida kerak bo‘ladigan asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, sayohatchilarni o‘ziga jalb qilishda, sayohat obyekting jozibadorligini oshirishda va turistlar ehtiyojini qondirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu turistik xizmatlarning asosiy qismi uyushgan turistik guruhlar kategoriyasiga mansub xizmatlar hisoblanadi. Ular asosan turistik agentliklar tomonidan tashkil etilgan turmahsulotlardan foydalanishadi. Ammo bu xizmatlarning faqatgina ba‘zilaridan mustaqil sayohatchilar o‘z sayohatlari davomida foydalanishadi. Sababi mustaqil sayohatchilar sayohat davomidagi ehtiyojlari uyushgan guruhli sayohatchilar xizmatlaridan farq qiladi.

Mustaqil sayohatchilar o‘z turyo‘nalishlarini byudjetlaridan kelib chiqib tuzishadi va ular noananaviy turizm xizmatlarini qidirishadi. Masalan avtostoplar – bu shaharlar va mamlakatlar o‘rtasida transportda to‘lovsiz harakatlanishdir. Mustaqil sayohatchilar asosan yakka tartibda yoki kam sonli guruhlardan tashkil etiladi. Shu sababdan byudjetli sayohatchilar ko‘p hollarda avtostop xizmatlaridan foydalanishadi.


Mustaqil turizm kategoriyasiga mansub sayyohlar odatda yolg‘iz, juftlikda yoki kichik, yaqin do‘stlar yoki oila guruhlarida sayohat qilishadi. Ularning yoshi millennial yoki Y avlodidan tortib to nafaqaxo‘rlargacha bo‘lishi mumkin, ularning daromadi odatda o‘rtachadan yuqori bo‘lib, ularga uyushgan guruh bilan sayohat qilishdan ko‘ra qimmatroq bo‘lishi mumkin bo‘lgan mustaqil sayohat qilish imkonini beradi. Ammo barcha mustaqil sayohatchilarning umumiy jihati, shundaki, ular ommaviy sayohat qilishdan qochishadi. Umuman olganda, ular o‘zlari tanlagan manzillarni mustaqil ravishda va o‘zlariga mos vaqt oralig‘ida o‘rganishni xohlashadi, shu bilan birga ular, asosiy e‘tiborlarini mahalliy oshxonalar, arxitektura, tarix va madaniyatdan yetarli darajada zavqlanishga qaratishadi [8].

Mustaqil sayohat qilish istagi ayniqsa pandemiyadan keyin sayohatchilar orasida kuchaymoqda. Mustaqil sayohatchilar yiliga 3 yoki undan ortiq marta qayta sayohat qilishadi va umumiy sayohat bozorining 11% ni tashkil qiladi. Mustaqil sayohat qilish 2016 yildan beri o‘sish tendentsiyasiga ega bo‘lib, 2021 yilda Google qidiruv tizimida “yakka sayohat” bo‘yicha 761% o‘sish sur‘atini ko‘rsatmoqda. Mustaqil sayohat qilishda ayollar yetakchi bo‘lib, umumiy sayohat bozorining 84 % tashkil etadi. Booking.com bergan ma‘lumotlariga ko‘ra hozirda “Baby Boomer” avlodiga mansub kategoriya mustaqil sayohat qilish bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatgichga ega. 2019 yilda 55 yoshdan 64 yoshgacha bo‘lganlarning 40 foizi yolg‘iz sayohat qilgan. 2022 yilda mustaqil sayohatning eng katta o‘sishi 65 va undan katta yoshdagi ayollarga to‘g‘ri keldi, bu 2019 yildagi umumiy ko‘rsatgich 4 foizdan 2022 yilda 18 foizgacha ko‘tarildi [9].

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida mustaqil turizm kategoriyasini rivojlantirishda ta‘sir etuvchi bir nechta omillar ishlab chiqildi va ular quyidagi rasmda aks ettirilgan (2-rasm).

Mustaqil turizm kategoriyasining rivojlanishi bilan birga mamlakatning turistik jozibadorligi, xizmatlarning diversifikatsiyalanishi, turizm faoliyat olib borayotgan tashkilotlar salohiyatining oshishiga drayver sifatida xizmat qiladi. Mustaqil ravishda turar joy, havo va temir yo‘l chiptalarini band qilishni va o‘z yo‘nalishini obdon rejalashtirishni afzal ko‘rgan yoshlar sohani o‘zgartirishga ya‘ni ushbu kategoriyani rivojlantirishda katta hissa qo‘shmoqda.

Bizning fikrimizcha, bu rivojlanish yosh avlod orasida zamonaviy texnologiyalarning ommaviylashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, hozirda deyarli har bir odamning shaxsiy smartfoni mavjud va bu kabi smartfonlar nafaqat aloqa vositasi sifatida, balki boshqa ko‘plab



2 – Rasm. Mustaqil turizmni rivojlantirishda ta'sir etuvchi omillar aks ettirilgan

Manba: muallif ishlanmasi

funksiyalarni ham bajaradi, shu jumladan turizmga bog‘liq xizmatlarni band qilish ham. Bundan tashqari, gadjetlardan foydalanish keksa avlod vakillari orasida ham ommalashmoqda va yaqin kelajakda biz keksa odamlar gadjetlardan bemalol foydalanishlarini va turistik xizmatlarni mustaqil band qilishlarini kuzatishimiz mumkin bo‘ladi. Ko‘p jihatdan, bunday sayohatlar tendentsiyasi zamonaviy aloqa vositalari, mobil ilovalar va ijara xizmatlarining rivojlanishi bilan bog‘lanadi, ulardan har qanday kishi oldindan o‘z ta‘tilini rejalashtirib foydalanishi mumkin [10].

So‘nggi yigirma yil ichida turistlar sayohatlarni ko‘pincha onlayn sayohat agentligi orqali mustaqil band qilishmoqda. Ushbu onlayn kompaniyalar sayyohlar uchun uydan turib band qilish qulayligini taklif qiladi va ko‘pincha sayohatchilarni paketli kelishuvlar va narxlarda chegirmalar berish kabi takliflar bilan sayohatchilarni jalb qilishadi. Natijada, ko‘plab sayohatchilar an‘anaviy tur agentliklaridan voz kechib, sayohatni band qilish uchun onlayn variantlarni tanlashdi [11]. Statista Mobility Market Insights ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022 yilda sayohat va turizm daromadining uchdan ikki qismi onlayn savdo kanallaridan tushgan. Onlayn sayyohlik agentliklari bozoridagi yetakchi kompaniyalardan, Booking Holdings va Expedia dunyodagi eng yirik onlayn band qilish tizimlari hisoblanadi. Booking Holdingsning daromadi 2022-yilda koronavirus (COVID-19) pandemiyasidan keyin 17 milliard dollardan oshgan bo‘lsa-da, Expedia Groupning butun dunyo bo‘yicha daromadi esa 12 milliard dollardan kam bo‘ldi, bu 2019-yilda qayd etilgan natijadan biroz pastroq. So‘nggi yillarda tez sur‘atlar bilan o‘sib borayotgan yana bir onlayn band qilish tizimi - bu Airbnb bo‘lib, u asosan oila bilan yoki uzoq muddatda yashaydigan shaxsiy uylarni ijaraga berish bilan shug‘ullanadi. Butun dunyo bo‘ylab Airbnb tizimi orqali band qilishning umumiy qiymati 2022-yilda taxminan 63 milliard dollarni tashkil qildi, bu 2017-yilga nisbatan uch baravar ko‘p [12].

Yuqoridagi tahlildan quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Mustaqil sayohatchilar yoshidan qat‘iy nazar raqamli texnologiyalarga eng asosiy omil sifatida qaraydi. Mamlakat turistik xizmatlar sotuvi ulushini oshirish maqsadida ushbu band qilish tizimlarda ko‘proq turistik xizmatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish maqsadga muvofiq. Uzbektourism.uz bergan ma‘lumotiga ko‘ra, 2023-yilga kelib joylashtirish vositalarining umumiy soni 4451 taga yetgan, onlayn band qilish tizimlarida esa ularning soni 3356 tani tashkil etmoqda. Pastdagi rasmda onlayn tizimlardan olingan ma‘lumotlarga asosan ro‘yxatdan o‘tgan mehmonxonalar shaharlar kesimida statistikasi berilgan (1-jadval) [13].

1-jadval

Elektron bronlash platformalarida ro‘yxatda o‘tgan mehmonxonalar soni shaharlar kesimida (2023yil)

No	Shaharlar	Booking.com	Expedia.com	Ostrovok.ru	Hotels.com
1	Toshkent	687	275	378	248
2	Buxoro	282	91	169	100
3	Samarqand	285	115	159	74
4	Xiva	109	36	52	35
5	Farg‘ona	22	7	10	7
6	Chimyon	6	6	4	2

7	Nukus	19	8	12	8
8	Urgench	16	16	12	35
9	Andijon	1	-	7	1
10	Navoi	19	6	14	6
11	Qarshi	-	4	9	4
12	Umumiy soni	1 446	564	826	520


Manba: elektron bornlash platformalaridagi ma'lumotlari asoaida muallif ishlanmasi

Yuqorida ko'rsatilgan bu platformalar mustaqil sayohatchilar uchun o'z sayohatlarni tashkil etishda katta imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Shu bilan bir qatorda turistik tashkilotlar ham ushbu platformalar orqali hech qanday vositachisiz xizmat sotuvlarini yanada oshirishga olib kelmoqda. Bundan xulosa qilib, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tufayli sayohatchi o'ziga kerakli xizmatlar haqida onlayn ma'lumot olishi, havo yoki temir yo'l chiptalarini kompaniya tizimlaridan sotib olish evaziga xarajatni tejash, mehmonxonalar yoki dam olish maskanlarini arzon narxlarda band qilish, bundan tashqari ularni boshqarib turuvchi menejerlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi. Sayohatchi ushbu operatsiyalarni o'z manzilidan turib amalga oshiradi, boshqa tarafdin esa uning mo'ljallagan joyiga yetib kelishidan keyin unga xuddi shunday internet tezligidan foydalana olish imkoniyatini yaratib berish lozim bo'ladi. Mustaqil sayohatchi manziliga yetib kelgandan keyin ham "onlayn" rejimida aloqada bo'lishi lozim. Sababi, mustaqil sayohatchilar o'z yo'nalishlarini, ehtiyojlarini, xizmatlarni sayohat jarayonida holatni o'zgartirib borishi mumkin.

Hududlar ichida va chekka joylarda, ayniqsa mustaqil sayohatchilar ko'proq tashrif buyuradigan ekstrimal zonalarda (tog', sahro, cho'l, suvli hududlar) internet tezligining pastligi mamlakatning hozirda zaif tomonlaridan biridir. Infratuzilmaning zaifligi turizmning yuqoridagi yo'nalishlarini rivojlantirishga jiddiy to'siq bo'lmoqda. Bundan kelib chiqqan holda, tadqiqotning asosiy muammosi mamlakatda mustaqil sayohatchilar uchun qulay infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarurligini belgilaydi.

2023-yil aprel oyida SPEEDTEST GLOBAL INDEX internet tezligi eng yuqori bo'lgan mamlakatlar bo'yicha so'rov o'tkazdi. Uyali aloqalardagi internet tezligi bo'yicha O'zbekiston dunyoning 190 ta mamlakat orasida 104-o'rinni egallagan bo'lsa, Wifi dan keng qamrovli internetga ulanish bo'yicha esa, 89-o'rinni egalladi. Global Speedtest indeksi 190 dan ortiq mamlakatlardagi millionlab odamlarning mobil ilovalaridan wifi orqali internetga ulanish va mobil aloqalarda internet tezligini o'lchaydi [14].

Global Speedtest indeksi har oyda dunyo bo'ylab internet tezligi ma'lumotlarini taqqoslaydi. Bu ko'rsatgichlar Indeks ma'lumotlari uchun Speedtest yordamida ko'plab odamlar tomonidan o'tkaziladigan yuz millionlab testlardan olingan. Pastdagi rasmda Global Speedtest indeksi har oyda dunyo bo'ylab internet tezligi ma'lumotlarini taqqoslaydi. Bu ko'rsatgichlar Indeks ma'lumotlari uchun Speedtest yordamida ko'plab odamlar tomonidan o'tkaziladigan yuz millionlab testlardan olingan. Pastdagi rasmda




3-Rasm. O‘zbekiston bo‘yicha MOBIL aloqa vositalaridagi o‘rtacha internet tezlik 2023-yil aprel [15]

Manba: Speedtest Global Index bergan ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

yuqori tezlik shu vaqtga kelib 10.27 (Mbps) ni tashkil etgan. Kuchli o‘ntalikni esa, 1.Qatar 189.98 (Mbps), 2. Birlashgan Arab Amirliklari 175.34 (Mbps), 3. Makao (Janubiy Afrika) 171.73 (Mbps), 4. Quvayt 139.03 (Mbps), 5. Norvegiya 131.16 (Mbps), 6. Daniya 118.83 (Mbps), 7. Baxreyn 115.0 (Mbps), 8. Janubiy Koreya 110.59 (Mbps), 9. Xitoy 110.10 (Mbps), 10. Niderlandiya 109.13 (Mbps) kabi davlatlar o‘rin egalladi.

Keyingi ko‘rsatgich bu radio signallari orqali uzatiladigan keng polosali ulanish internet aloqasidir. Keng polosali ulanish har qanday yuqori tezlikdagi ma’lumotlarni uy yoki korxonaga, ya’ni belgilangan joyga kabel, DSL, simli va simsiz ulanish kabi turli texnologiyalardan foydalangan holda uzatishni o‘z ichiga oladi. Asosan, bu aniq bir joylarda "doim yoqilgan" yuqori tezlikdagi internet ulanishlarini nazarda tutadi.



4–Rasm. Keng polosali ulanishlardan wi-fi orqali foydalanish tezligining statistikasi aks ettirilgan [16]

Manba: Speedtest Global Index bergan ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Ushbu statistik ma’lumot uy yoki korxonalarda o’rnatilgan internet tarmoqlardan wi-fi orqali ulanish va uning ishlash tezligi haqida berilgan. Ushbu ma’lumotlar wi-fi orqali ulangan uyali aloqalardagi internet tezligi natijalarini o’z ichiga oladi. O’zbekiston bu ko’rsatgich bo’yicha 89-o’rinni egalladi, bu o’tgan yilga nisbatan ikki pog’ona (91) yuqorilashganini ko’rsatmoqda. Birinchi o’ntalikni esa, 1. Singapur 242.01 (Mbps), 2. Chili 222,49 (Mbps), 3. BAA 216,78 (Mbps), 4. Xitoy 215,80 (Mbps), 5. Gonkong (SAR) 205.19 (Mbps), 6. Tayland 204.26 (Mbps), 7. AQSH 202.40 (Mbps), 8. Daniya 199.94 (Mbps), 9. Ispaniya 175.96 (Mbps), 10. Rumuniya 174.26 (Mbps) kabi davlatlar o’rin egalladi. Shundan xulosa qilish mumkinki bu borada jiddiy o’zgarishlar olib borish lozim. Hozirda internet tezligi sayohatchilar uchun eng asosiy omil bo’lib hisoblanadi.

Xorijiy sayohlarning ixtisoslashgan turizmga oid veb sahifalarda qoldirilgan sharhlari kontent tahlili.

Butun dunyoda mashhur tripadvisor.com veb-sahifasi bir necha yillardan beri o’z faoliyatini olib bormoqda, ushbu veb sahifa orqali sayohatchilar mustaqil ravishda o’z tur yo’nalishlarini tashkil qilish imkoniga ega. Shu bilan birga ushbu sahifada har bir mustaqil turist sayohatini amalga oshirib bo’lgandan keyin o’z sharhlarini qoldirishi mumkin. Xuddi shunday O’zbekistonga tashrif buyurgan mustaqil sayohatchilar turizm infratuzilmasining qoniqarli va qoniqarsiz tomonlari haqida sharhlar qoldirilgan.

Qoniqarli	Qoniqarsiz
<ul style="list-style-type: none"> - veb-sahifadan turistik xizmatlarni band qilish (OrexCA.com, http://www.stanjourneys.com); - shaharlara qatnaydigan transport haydovchilarining ingliz-tilini bilishi; - mahalliy aholining tojik, fors, rus va kamroq turk tilini bilishi; - mehmondo’st xalq; - shahar va diqqatga sazovor joylarni hamroh yoki yo’l ko’rsatuvchi (talabalar, o’rganayotganlar) arzon gidlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi; - tarixiy mamlakat; - visa siyosatining yumshatilishi; - sayohlarning xavfsizligini ta’minlovchi turistik markazlarda sayyohlik politsiyalarining mavjudligi; - ayol mustaqil sayohatchilar uchun xavfsiz mamlakat; - zamonaviy va toza shaharlar; - jinoyat darajasining pastligi; - milliy taomlarning mazali va xavfsizligi; 	<ul style="list-style-type: none"> - Transport va savdo belgilarining aksariyati o’zbek tilida; - Xivadan, Toshkentdan Buxorogacha, bo’lgan yo’lning yomon ahvoldaligi; - xorijiy tildan o’zbek tiliga tarjimon qiladigan kompakt disklar yoki audio gidlar; - mahalliy aholi, avia, temir yo’l, tarixiy binolardagi chiptaxonalar, milliy ovqatlanish maskanlari va kichik mehmonxonalarda ingliz tilini bilishi darjasining pastligi; - sayohatchilarni narx masalasida mahalliy aholi (taksistlar, savdo do’konlari) tomonidan aldanishi; - xalqaro aero qatnovlarning aksariyati tunda yetib kelishi; - xalqaro avia qatnovlar bilan ichki avia qatnovlarning o’rtasidagi intervalning kattaligi; - Shahar markazlarida daraxtlarning kamligi; - kechki paytda yo’llar va ko’chalarning yetarli darajada yoritilmaganligi; - aero va temir yo’l chiptalarining tanqisligi; - mahalliy transport haydovchilarining xorijiy tilni bilmasligi va yo’lda tezlik bilan harakatlanishi;

	<ul style="list-style-type: none">- turistik joylarda tez tibbiy yordam postlarining yo‘qligi;- Ingliz tilida gaplashadigan tibbiyot xodimlari juda kamligi.
--	---

5 – Rasm. O‘zbekistonda turizm infratuzilmasining content tahlili [16]

Manba: mustqil sayohatchilarning veb sahifalarida qoldirgan sharhlari asosida muallif ishlanmasi

Sharhlar tripadvisor.com va journalofnomads.com veb-sahifalarida 18 nafar mustaqil sayohatchilar qoldirgan. Ular O‘zbekistonga tashriflari davomida kamchiliklar va qoniqarli tomonlarini keyingi sayohatchilar uchun maslahat sifatida o‘z sharhlarini qoldirishgan.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi tadqiqotlardan biz mustaqil turizm kategoriyasi uchun qulay infratuzilmani aniqladik, xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mamlakat infratuzilmasining hozirgi holati mustaqil sayohatchilarni jalb qilishda yetarli darajada rivojlanmagan. Ushbu tadqiqotda xorij tajribasiga tayangan holda, mustaqil turizmni rivojlantirishda ijtimoiy, iqtisodiy, institutsional va texnik omillar aniqlangan.

Xorijiy va milliy veb-sahifalarda O‘zbekistonga tashrif buyurgan kam sonli mustaqil sayohatchilar qoldirgan sharhlarga izoh sifatida mamlakatga mustaqil sayohatchilarni jalb qilishda va uning oqimini yanada ko‘paytirishda yaxshigina potensialga ega va bu bilan biz quyidagi tendensiyalar haqida ta’kidlab o‘tishimiz mumkin:

- birinchi navbatda bu moliyaviy tushumni va ichki turizmni rivojlantiradi;
- turizm sohasida faoliyat olib borayotgan tashkilotlar (mehmonxonalar, avia, temir yo‘l, transport firmalari, restoranlar) to‘g‘ridan-to‘g‘ri vositachisiz onlayn platformalar orqali o‘z xizmatlarini sotish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Mazkur ilmiy-tadqiqot doirasida O‘zbekistonda turizm sohasining drayver sifatida barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan mustaqil turizm kategoriyasini tahlil qilib, ushbu yo‘nalishni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Mamlakatdagi infratuzilmaning bir xil rivojlanmaganligi. Ma’lumki, O‘zbekiston hududida yirik turistik brendga ega tarixiy shaharlar mavjud – bular Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridir. Ushbu hududlar mamlakatning eng ko‘p tashrif buyuradigan sayyohlik joylaridir. Shu bilan bir qatorda aynan ushbu shaharlar turizm uchun eng yaxshi infratuzilmaga ega va har yili mavjud infratuzilmani yanada rivojlantirish maqsadida hukumat tomonidan moliyaviy qo‘llab – quvvatlanadi. Ushbu shaharlarda asosan madaniy turizm keng rivojlangan. Ko‘p yillardan beri xorijiy sayyohlar tarixiy yodgorliklar ko‘rish maqsadida tashrif buyurishadi. Ammo katta turistik potensialga ega bo‘lgan chekka hududlar hanuzgacha e’tiborsiz qolmoqda. Masalan, Navoi va Buxoro hududlarida joylashgan To‘dakul suv ombori, Jizzax, Surxondaryo, Farg‘ona vodiysi, Zarafshon, Nurotadagi tog‘ tizmalari, qishloqlarning yashash turmush tarzi kabi hududlarda zamonaviy infratuzilmani tashkillashtirish lozim.

2. Boshqa bir mustaqil sayohatchilarni O‘zbekistonga tashrif buyurishiga to‘sqinlik qilayotgan omil bu transport xizmatlari narxning yuqoriligi. Aero chiptalar mustaqil sayohatchi xarajatlarining asosiy qismini tashkil etmoqda. Shuning uchun mustaqil sayohatchilarga avia kompaniyalar tomonidan jamlanib boradigan bonus tizimlarini taklif etish lozim. Har bir keyingi sotib olinadigan avia chiptadan sayyohga keshback sifatida ma’lum bir foizni qaytarib berish. Shuningdek, sayohatchilarga onlayn xizmatlarda avia

chiptalarning narxlar dinamikasini kuzatib borish imkonini yaratib berish. Bu sayohatchi uchun o‘ziga qulay paytda chiptani band qilish imkonini beradi.

3. Mamlakatda tashrif buyurgan mustaqil sayohatchilar statistikasini muntazam olib borish va milliy veb-sahifani yaratish. Bu bilan sayohatchilar o‘z sharhlarni veb-sahifaga qoldiradi, bu esa, hududlarda mavjud bo‘lgan kamchiliklarni o‘rganib, kelajakda uni bartaraf etishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston hududlarida turizmni drayver sifatida barqaror rivojlantirishni ta‘minlaydigan va unga yondosh tarmoqlar bilan birgalikda rivojlantirish yo‘llarini belgilaydigan mustaqil turizm kategoriyasiga mos xizmatlarni takomillashtirish tavsiya qilinadi. Chekka hududlarni potensialidan maksimum foydalangan holda, infratuzilmani barpo etish, byudjet tizimining daromad qismini to‘ldirish, mahalliy aholi uchun qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish va yoshlarning intellektini ko‘tarishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://lex.uz/uz/docs/-5005682?ONDATE=21.05.2022>.
2. Hafnidar A. Rani, Moch. Afifuddin va Herry Akbar, Tourism infrastructure development prioritization in Sabang Island using analytic network process methods, November 2017, DOI:10.1063/1.5011570.
3. Оборин М.С., Развитие самостоятельного туризма как актуальная тенденция спроса, 2022 Т.16 №1 с. 15–24, DOI: 10.24412/2413-693X-2022-1-15-24.
4. Quang Hai Nguyen, Impact of Investment in Tourism Infrastructure Development on Attracting International Visitors: A Nonlinear Panel ARDL Approach Using Vietnam’s Data, 14 September 2021, <https://doi.org/10.3390/economies9030131>.
5. Desy Yuliana Dalimunthe, Devi Valeriani, Fitra Hartini, Rulyanti Wardhani, The Readiness of Supporting Infrastructure for Tourism Destination in Achieving Sustainable Tourism Development, June 2020, DOI:10.33019/society.v8i1.149.
6. Guodong Yan, Lin Zou, Yunan Liu, Ruxue Ji, How does new infrastructure impact the competitiveness of the tourism industry?—Evidence from China, Published: December 1, 2022, 7.
7. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0278274>.
8. Bakhodir Turayev, Ulugbek Atamurodov, Ways To Develop Infrastructure of Tourism Destinations, January 2021, DOI:[10.21070/pssh.v1i.38](https://doi.org/10.21070/pssh.v1i.38).
9. Ana Figueroa, FIT Travel: All About Independence Updated on 06/26/19. <https://www.tripsavvy.com/fit-travel-3252289>.
10. <https://www.condorferries.co.uk/solo-travel-statistics>.
11. Лосев, Даниил Алексеевич, Использование информационных технологий при организации самостоятельных путешествий, бакалаврская работа, 2021, с. 10, <https://elib.sfu-kras.ru/>.
12. <https://www.google.com/search=solo+tourism>.
13. <https://www.statista.com/topics/2704/online-travel-market/#topicOverview>.
14. booking.com, expedia.com, ostrovok.ru, hotels.com.
15. <https://www.speedtest.net/global-index>.
16. <https://www.speedtest.net/global-index/uzbekistan>.
17. <https://www.speedtest.net/global-index/uzbekistan>.
18. <https://www.journalofnomads.com/is-uzbekistan-safe/>.